



UDK:81'25:81'373

Oybek JUMABOYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
E-mail: oybekjumaboyevtdshu@gmail.com

F. f. n, dotsent, U.Yo'ldoshev taqrizi asosida

MADANIYATLARARO LEKSIK TAFOVUTLARNING OG'ZAKI TARJIMADA BERILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada madaniyatlararo leksik tafovutlarning og'zaki tarjima jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Turli madaniyatlarning til tizimidagi o'ziga xos leksik birliklar va ular ifodalagan tushunchalar ko'pincha bevosita mos tarjimaga ega bo'lmaydi, bu esa tarjimonlardan chuqur madaniy bilim va kontekstual moslashtirish ko'nikmalarini talab etadi. Maqolada madaniy xususiyatlarga ega so'z va iboralarni og'zaki tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklar, ularga samarali yondashuv usullari va madaniyatlararo kommunikatsiyada tarjimonning roli yoritib beriladi. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy tarjima strategiyalari, real misollar asosida tahlil qilinadi va samarali og'zaki tarjima uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Madaniyatlararo kommunikatsiya, leksik tafovut, og'zaki tarjima, madaniy moslashtirish, tarjima strategiyalari, madaniy kontekst.

ПЕРЕДАЧА МЕЖКУЛЬТУРНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ РАЗЛИЧИЙ В УСТНОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

В данной статье анализируется влияние межкультурных лексических различий на процесс устного перевода. Лексические единицы, характерные для языковых систем различных культур, а также выражаемые ими понятия зачастую не имеют прямых эквивалентов, что требует от переводчика глубоких культурных знаний и навыков контекстуальной адаптации. В статье рассматриваются трудности, возникающие при устном переводе слов и выражений с культурной спецификой, эффективные подходы к их передаче, а также роль переводчика в межкультурной коммуникации. Кроме того, на основе реальных примеров анализируются традиционные и современные переводческие стратегии и даются рекомендации по обеспечению качественного устного перевода.

Ключевые слова: Межкультурная коммуникация, лексические различия, устный перевод, культурная адаптация, переводческие стратегии, культурный контекст.

RENDERING INTERCULTURAL LEXICAL DIFFERENCES IN ORAL INTERPRETING

Annotation

This article analyzes the impact of intercultural lexical differences on the process of oral interpreting. Lexical units specific to the linguistic systems of different cultures and the concepts they express often lack direct equivalents, which requires interpreters to possess deep cultural knowledge and skills of contextual adaptation. The article examines the difficulties encountered in the oral interpretation of culturally marked words and expressions, effective approaches to addressing these challenges, and the role of the interpreter in intercultural communication. In addition, traditional and modern interpreting strategies are analyzed based on real examples, and recommendations for ensuring effective oral interpreting are provided.

Key words: Intercultural communication, lexical differences, oral interpreting, cultural adaptation, translation strategies, cultural context.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot tobora jadallashib bormoqda. Ushbu jarayonda og'zaki tarjima muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, tillararo axborot almashinuvini ta'minlaydi. Biroq og'zaki tarjima jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, madaniyatlararo leksik tafovutlar tarjimon oldida murakkab vazifalarni yuzaga keltiradi. Chunki har bir tilning leksik tizimi o'sha xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu sababli bunday birliklarni og'zaki tarjimada adekvat yetkazish tarjimonning madaniy kompetensiyasiga bevosita bog'liq.

Madaniyatlararo leksik tafovutlar, asosan, realiyalar, milliy xos tushunchalar, ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi so'zlar va madaniy konnotatsiyaga ega leksik birliklar orqali namoyon bo'ladi. Og'zaki tarjimada ushbu birliklar bilan ishlash jarayonida semantik yo'qotish, ma'no torayishi yoki kengayishi, pragmatik nomuvofiqlik kabi muammolar yuzaga

kelishi mumkin. Vaqt cheklanganligi, ayniqsa sinxron tarjimada, tarjimonning har bir birlikni chuqur tahlil qilish imkoniyatini kamaytiradi va tezkor qaror qabul qilishni talab etadi.

Asosiy qism. Og'zaki tarjimada madaniyatlararo leksik tafovutlarni yetkazishda asosiy muammo manba tilidagi leksik birlikning maqsad tilida to'liq ekvivalentga ega emasligidadir. Bunday hollarda tarjimon mazmuniy ekvivalentlikni saqlash, tinglovchi auditoriyaning madaniy bilim darajasini hisobga olish hamda nutqning kommunikativ vazifasini buzmaslikka intiladi. Masalan, muayyan milliy taom, marosim yoki ijtimoiy institut nomlari bevosita tarjima qilinganda tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shu sababli izohli tarjima, funksional analoglardan foydalanish yoki neytrallashtirish strategiyalari qo'llaniladi.

Madaniy tafovutlarni og'zaki tarjimada muvaffaqiyatli berish tarjimonning til bilimidan tashqari, keng dunyoqarash, madaniyatlararo muloqot tajribasi va pragmatik sezgirlikka ham bog'liqdir. Tarjimon nafaqat so'z ma'nosini, balki uning

ortidagi madaniy yuklamani ham anglab yetishi zarur. Aks holda, muloqot jarayonida noto'g'ri talqinlar yoki kommunikativ uzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, og'zaki tarjimada madaniy kompetensiya tarjimonning professional tayyorgarligida muhim o'rin egallaydi. Og'zaki tarjima – bu o'zaro muloqotda tildan-tillarga o'tkazishning murakkab va nozik jarayoni bo'lib, u faqat tilning grammatikasi va leksikasini emas, balki madaniy kontekstni ham hisobga olishni talab qiladi. Har bir madaniyatning o'ziga xos til tizimi va madaniy nuqtai nazari mavjud. Shuning uchun, og'zaki tarjima jarayonida madaniyatlararo leksik tafovutlar, ya'ni so'zlar va iboralar o'rtasidagi farqlar, katta rol o'ynaydi. Madaniyatlararo leksik tafovutlar, tarjimonning tilni to'g'ri tushunishi va kontekstni chuqur anglashini talab qiladi. Ushbu maqolada madaniyatlararo leksik tafovutlarning og'zaki tarjimadagi berilishi va bu tafovutlar bilan bog'liq qiyinchiliklar tahlil qilinadi.

Madaniyatlararo leksik tafovutlar – bu til o'rtasidagi farqlar, ya'ni bir tildagi so'z yoki ibora boshqa tilda to'liq ekvivalentga ega bo'lmagan yoki o'zgarib tushuniladigan holatlar. Har bir til o'zining madaniy qadriyatlarini, tarixiy tajribasi, ijtimoiy normasi va ko'plab boshqa omillar bilan shakllanadi. Shunday qilib, so'zlarning ma'nosi faqat grammatika bilan emas, balki madaniyat bilan ham bog'liq bo'ladi. Tarjimon bu tafovutlarni tushunib, madaniyatlararo farqlarni hisobga olib tarjima qilishda muhim rol o'ynaydi.

Madaniyatlararo leksik tafovutlarni tushunish, tarjimonning ikki tildagi so'zlarning madaniy va semantik ma'nolarini o'zaro solishtirishni anglatadi. Shunday qilib, so'zlar nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy kontekstda ham to'g'ri talqin qilinishi kerak. Og'zaki tarjima jarayonida bu tafovutlar odatda shunday shakllarda ko'rinadi:

a. Leksik farqlar - boshqa tildagi so'zlarning to'g'ri ekvivalentlarini topish.

Semantik tafovutlar - so'zning ma'nosining madaniyatga qarab o'zgarishi.

Kontekstual tafovutlar - so'z yoki iboraning madaniy holatga asoslangan turli ma'nolarni anglatishi.

Og'zaki tarjimada madaniyatlararo leksik tafovutlar asosan nutqdagi so'z va iboralarining o'ziga xosligini hisobga olishni talab qiladi. Bir tildagi so'z boshqa tilda bevosita tarjima qilinmasligi yoki noaniq tushunilmasligi mumkin. Bu jarayonda tarjimonlar odatda ikki yondoshuvni qo'llaydilar: moslashtirish va izohli tarjima.

Quyidagi misollar yordamida og'zaki tarjimadagi madaniyatlararo tafovutlarning qanday yuzaga kelishi mumkinligini ko'rish mumkin:

Masalan, o'zbekchada to'y – o'zbek madaniyatida milliy an'analar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan muhim voqea. Turkchada esa, düğün – turk madaniyatida ham to'yni bildiradi, ammo bu ibora ko'proq rasmiy, shar'iy va madaniy an'analar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Agar bu iboralar og'zaki tarjimada ishlatilsa, ularni to'g'ri va aniq tarzda tarjima qilish zarur. O'zbekcha to'y so'zining turkcha ekvivalenti düğün bo'lsa-da, bu so'zlarning madaniy kontekstdagi farqlarni hisobga olish kerak. Agar tarjimon bu tafovutlarni hisoblasa, to'g'ri va aniq tarjimini amalga oshirishi mumkin.

Madaniyatlararo tafovutlarni hal qilishda tarjimonlarning roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Tarjimonlar faqat so'zlarni tarjima qilish bilan cheklanmaydi, balki ularning madaniy va kontekstual ma'nolarini ham tushunishlari kerak. Og'zaki tarjima jarayonida tarjimonlar madaniy tafovutlarni hal qilish uchun turli yondoshuvlarni qo'llaydilar. Bular moslashtirish, izohli tarjima, kontekstual tarjimadan iborat.

Moslashtirishda, tarjimon so'z yoki iborani boshqa madaniyatga moslashtiradi. Masalan, bir tildagi urf-odat yoki

adabiy uslublar boshqalarida tushunarsiz yoki notanish bo'lishi mumkin.

Izohli tarjimada esa, madaniyatlararo tafovutlar juda kattalashganda, tarjimonlar izohli tarjimadan foydalanadilar. Bu metodda tarjimon ma'noni tushunish uchun qo'shimcha izohlar yoki tushuntirishlar kiritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot madaniyatlararo leksik tafovutlarning og'zaki tarjima jarayonidagi ifodalanishi va ularni yetkazish strategiyalarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy yondashuv asosida bir qator nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot nazariyalari integratsiyasiga tayangan holda ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili. Madaniyatlararo muloqot va tarjima muammolari zamonaviy tarjimashunoslikda keng tadqiqot etilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala, ayniqsa, og'zaki tarjima jarayonida leksik birliklarning madaniy yuklamasi bilan bog'liq jihatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimashunoslikda madaniyat omilining roli E. Nida, P. Newmark, G. Toury, L. Venuti kabi olimlar tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Ular tarjimada ekvivalentlik tushunchasini faqat lingvistik darajada emas, balki madaniy va pragmatik darajada ham ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydilar.

Og'zaki tarjima nazariyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (D. Gile, F. Pöschhacker va boshqalar) sinxron va ketma-ket tarjima jarayonida tezkor qaror qabul qilish, kognitiv yuklama va vaqt cheklovi asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ushbu omillar madaniyatlararo leksik tafovutlarni to'g'ri yetkazishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, og'zaki tarjimada realiyalar va milliy xos birliklarni tarjima qilishda izohli yoki funksional yondashuv ustuvor bo'lishi qayd etiladi.

Turkiy tillar misolida madaniy va leksik tafovutlar masalasi bo'yicha o'zbek va turk olimlarining ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlarda milliy mentalitet, tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy omillarning leksik tizimga ta'siri tahlil qilingan. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo leksik tafovutlarning aynan og'zaki tarjima jarayonidagi ifodalanishi hali yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida og'zaki tarjima amaliyotida uchraydigan madaniyatlararo leksik tafovutlar semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniy xos leksik birliklarni tarjima qilishda asosiy muammo to'liq ekvivalentning mavjud emasligidir. Bunday vaziyatlarda tarjimon ko'pincha izohli tarjima yoki funksional analoglardan foydalanishga majbur bo'ladi. Bu esa nutqning ixchamligi va tezkorligini qisman cheklashi mumkin.

Shuningdek, tahlil natijalariga ko'ra, og'zaki tarjimada madaniy tafovutlarni muvaffaqiyatli yetkazish tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Tarjimon tomonidan manba tilidagi leksik birlikning madaniy konteksti to'g'ri anglanmagan taqdirda, semantik siljish yoki kommunikativ uzilish yuzaga keladi. Ayniqsa, rasmiy nutq, diplomatik uchrashuvlar va ijtimoiy-madaniy tadbirlarda bunday xatoliklar muloqot samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil davomida og'zaki tarjimada qo'llaniladigan asosiy strategiyalar aniqlashtirildi: mazmuniy ekvivalent orqali tarjima qilish, izohli tarjima, neytrallashtirish va madaniy moslashtirish. Ushbu strategiyalarning tanlanishi nutq vaziyati, auditoriya xususiyatlari va tarjima turi (sinxron yoki ketma-ket)ga bog'liq ekanligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, funksional yondashuv va kontekstni hisobga olish

madaniyatlararo leksik tafovutlarni og'zaki tarjimada samarali yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar madaniyatlararo leksik tafovutlarning og'zaki tarjimada berilishi murakkab, ammo tizimli yondashuv orqali hal etilishi mumkin bo'lgan jarayon ekanligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar og'zaki tarjimonlar tayyorlash jarayonida madaniy kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi. Kontekstual tarjima yondashuvida so'zlarning ma'nosini va ulardan foydalanish kontekstini chuqur anglash orqali tarjimonlar to'g'ri ekvivalentlarni tanlaydilar.

Misol: O'zbekcha qishloq so'zi turk tilida ko'y deb tarjima qilinishi mumkin, lekin bu so'zning ijtimoiy kontekstdagi farqlari bo'lishi mumkin. O'zbek madaniyatida qishloq ko'proq jamoat va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'lanadi, turk madaniyatida esa bu so'z faqat geografik joyni anglatadi.

O'z o'rnida, og'zaki tarjimadagi madaniyatlararo tafovutlar, ba'zan to'g'ri va aniq muloqotni amalga oshirishda qiyinchiliklar yaratadi. Misol uchun, bir tilning urf-odatlarini yoki tabiatdagi o'ziga xos jihatlari boshqa tilda tushunilmasligi yoki madaniy jihatdan noqulay bo'lishi mumkin. Tarjimon bu tafovutlarni hisobga olib, tarjimaning aniq va o'zgacha tushunilmasligini ta'minlash uchun yondoshuvlar tanlashi kerak.

Madaniyatlararo tafovutlarni engib o'tish uchun bir nechta metodlar mavjud:

Yaxshi madaniy tushuncha ega bo'lish - tarjimon madaniyatlararo tafovutlarni tushunish uchun har ikki tilni va madaniyatni chuqur anglab, muvofiqlashtirilgan tarjimani amalga oshirishi kerak.

So'zlarni moslashtirish - tarjimonlar ba'zan to'g'ri leksik ekvivalentni topish o'rniga madaniy kontekstga moslashtirilgan so'zlarni tanlashlari mumkin.

Tushuntirish va izohlar - adaniyatlararo tafovutlar juda keng bo'lsa, tarjimonlar so'zning tushunilishi uchun izoh yoki qo'shimcha tushuntirish kiritishi kerak.

Xulosa va takliflar. Og'zaki tarjimadagi madaniyatlararo leksik tafovutlar, tilshunoslar va tarjimonlar uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tarjimonlar faqat so'zlarni bevosita tarjima qilish bilan cheklanmay, ularning madaniy kontekstini va semantik ma'nolarini ham hisobga olishlari kerak. Madaniyatlararo tafovutlarni hal qilish, tarjimani aniq va to'g'ri qilish uchun yuqori malakani va madaniyatlararo tajribani talab qiladi. Tarjimonlar tomonidan qo'llaniladigan yondoshuvlar va metodlar, og'zaki tarjimaning samarali va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ismatullayeva, N. R. (2019). The phenomenon of lacunarity as the linguacultural issue. Prospects of world science-2019, 226.
2. Ismatullayeva, N. R. (2013). Texts of Lectures in the Subject of Synchronous Translation. Tashkent TSUOS, Department of Translation Theory and Practice Tashkent, 2013-55 p.
3. Seeber, K. G. (2023). Cognitive load in simultaneous interpreting. Target, 25(1), 45-67.
4. Ismatullayeva, N. R. (2020). Probability Prediction Strategy In Simultaneous Interpretation. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 1(01), 1-6.
5. Ismatullayeva, N. R. (2024). The importance of translation semantography in interpreter training. Current research journal of philological sciences, 5(06), 5-9.
6. Kalina, S. (2000). Interpreting competence as a basis and goal for teaching. The Interpreters' Newsletter, 10, 3-32.
7. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. International Journal of Social Science Research and Review, 5(12), 448-452.
8. https://www.aa.com.tr/tr/gundem/turk-devletleri-teskilati-2023te-en-aktif-yillarindan-birini-yasadi/3093510?utm_source